



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili..... 194 <i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	194
	Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati..... 198 <i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	198
	Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili 202 <i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	202
	Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means 205 <i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	205
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish..... 208 <i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	208
	Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari..... 212 <i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	212
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati 216 <i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	216
	Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari..... 221 <i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	221
	Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication 224 <i>Fayziyeva Parvina</i>	224
	Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi 227 <i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	227
	Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi..... 235 <i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	235
	Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari..... 238 <i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	238
	Spheres of Language Use..... 243 <i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	243
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi..... 246 <i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	246
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari..... 251 <i>N. Jurayev</i>	251
	Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil 255 <i>Nargiza Ergasheva</i>	255
	Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli 259 <i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	259
	Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) 264 <i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	264
	O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi 269 <i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	269
	Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi..... 273 <i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	273
	Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori..... 278 <i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	278
	Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati..... 282 <i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	282
	Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish 285 <i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	285



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



TALABALARDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Qo'chqorov Nodir Bozorovich

Buxoro davlat pedagogika instituti
 Ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi,
 Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi



Annotatsiya: Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Talabalarda shaxsiy moliyani boshqarish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, jamg'arma qilish, kredit va bank xizmatlaridan oqilona foydalanish, iqtisodiy xavflarni baholash hamda raqamli iqtisodiy xavfsizlik talablariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda ta'lim mazmunining amaliy yo'naltirilganligi, interfaol metodlardan foydalanish, amaliy topshiriqlarni tashkil etish, raqamli vositalarni qo'llash, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va talabalarning motivatsiyasini oshirish kabi pedagogik shart-sharoitlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy savodxonlik, talabalar, pedagogik shart-sharoitlar, oliy ta'lim, shaxsiy moliya, iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy xulq-atvor, interfaol metodlar, amaliy topshiriqlar, raqamli iqtisodiy xavfsizlik, ta'lim jarayoni.

Abstract: The pedagogical conditions for developing economic literacy among students and the significance of promoting economic literacy within the higher education system are analyzed. The necessity of developing students' skills in personal financial management, income and expense planning, saving practices, rational use of credit and banking services, assessment of economic risks, and compliance with digital economic security requirements is substantiated. In addition, the importance of pedagogical conditions such as the practical orientation of educational content, the use of interactive teaching methods, the organization of practical assignments, the application of digital tools, the methodological preparedness of instructors, and the enhancement of student motivation in developing economic literacy is emphasized.

Key words: economic literacy, students, pedagogical conditions, higher education, personal finance, economic culture, economic thinking, economic behavior, interactive methods, practical assignments, digital economic security, educational process.

Аннотация: Анализируются педагогические условия формирования экономической грамотности у студентов, а также значение развития экономической грамотности в системе высшего образования. Обосновывается необходимость формирования у студентов навыков управления личными финансами, планирования доходов и расходов, накопления сбережений, рационального использования кредитных и банковских услуг, оценки экономических рисков и соблюдения требований цифровой экономической безопасности. Кроме того, раскрывается значение таких педагогических условий развития экономической грамотности, как практическая направленность содержания образования, использование интерактивных методов, организация практических заданий, применение цифровых инструментов, методическая подготовленность преподавателей и повышение мотивации студентов.

Ключевые слова: экономическая грамотность, студенты, педагогические условия, высшее образование, личные финансы, экономическая культура, экономическое мышление, экономическое поведение, интерактивные методы, практические задания, цифровая экономическая безопасность, образовательный процесс.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy qarorlar va mavjud resurslardan oqilona foydalanish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor munosabatlarning rivojlanishi, raqamli iqtisodiy xizmatlarning kengayishi, bank tizimi va elektron to'lov vositalaridan foydalanishning ortib borishi har bir shaxsdan ma'lum darajada iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etmoqda.

Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning iqtisodiy savodxonligini shakllantirish ularning mustaqil hayotga tayyorlanishi, iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishi hamda kelajakda ongli iqtisodiy qarorlar qabul qilishi uchun zarur hisoblanadi. Iqtisodiy savodxonlik shaxsning pul, daromad, xarajat, jamg'arma, kredit, investitsiya, sug'urta, soliq, byudjet va iqtisodiy xavfsizlik kabi tushunchalarni anglash

hamda ulardan kundalik hayotda to'g'ri foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Iqtisodiy jihatdan savodxon talaba o'z daromad va xarajatlarini rejalashtira oladi, ortiqcha sarf-xarajatlardan saqlanadi, jamg'arma qilish zaruratini tushunadi, kredit va qarz majburiyatlariga mas'uliyat bilan yondashadi. Shu bois iqtisodiy savodxonlik nafaqat iqtisodiy bilimlar majmui, balki shaxsning mas'uliyatli iqtisodiy xulq-atvori va iqtisodiy madaniyatini belgilovchi muhim omil hamdir.

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi lozim. Bu jarayonda ularda mustaqil fikrlash, rejalashtirish, tejamkorlik, tavakkalchilikni baholash, iqtisodiy axborotni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish kabi amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish muhimdir. Ayniqsa, talabalik davrida yoshlar stipendiya, ota-ona yordami, qo'shimcha daromad yoki vaqtinchalik ish haqi kabi mablag'lardan foydalanishni boshlaydilar. Shuning uchun aynan shu bosqichda ularda shaxsiy byudjetni yuritish, xarajatlarni nazorat qilish va iqtisodiy maqsadlarni belgilash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiy savodxonlik tushunchasi jahon miqyosida alohida e'tibor qaratilayotgan muhim ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy inson kundalik hayotida doimiy ravishda iqtisodiy qarorlar qabul qiladi. U daromad topadi, xarajat qiladi, jamg'arma shakllantiradi, bank xizmatlaridan foydalanadi, turli to'lovlarni amalga oshiradi, kredit yoki qarz munosabatlariga kirishadi, sug'urta va soliq masalalari bilan duch keladi. Bunday sharoitda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarning yetarli bo'lmashligi insonning shaxsiy hayoti, oilaviy farovonligi va ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Talabalik davri inson hayotida mustaqil qarorlar qabul qilish, hayotiy maqsadlarni belgilash, kelajakdagi kasbiy faoliyatni rejalashtirish va o'z ehtiyojlarini boshqarish davri hisoblanadi. Talaba yoshlar ko'pincha birinchi marta o'z mablag'larini mustaqil boshqarishni aynan shu davrda boshlaydilar. Ular stipendiya, ota-onadan olinadigan mablag', vaqtinchalik ish haqi yoki boshqa daromadlardan foydalanadilar. Shu sababli ularda daromad va xarajatlarni rejalashtirish, tejamkorlik, jamg'arma qilish, iqtisodiy xavflarni anglash va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish masalalari pedagogika va iqtisodiyot yo'nalishlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi.

F. F. Saidqulova talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganib, iqtisodiy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyalashuvi, ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi va interfaol yondashuvlar iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim omillari ekanini asoslaydi ^[1].

M. R. Obilov esa moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilib, aholining iqtisodiy bilimlari va moliyaviy madaniyati mamlakatdagi tadbirkorlik faolligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi ^[2].

Raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

E. X. Salimov tadqiqotlarida raqamli ta'lim muhitining bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashdagi imkoniyatlari yoritilib, iqtisodiy va raqamli kompetensiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslangan ^[3].

D. R. Raxmatullayeva hamda T. Butayev tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion metodlari, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan texnologiyalar va talabalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan ^{[4], [5]}.

Iqtisodiy savodxonlikning shaxs kamoloti va iqtisodiy madaniyat bilan aloqador jihatlari B. N. Valiyev, L. N. Jo'rayev hamda L. N. Djurayev tadqiqotlarida yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda iqtisodiy madaniyat shaxsning iqtisodiy bilimlari, qadriyatlar va iqtisodiy xulq-atvori bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflanadi ^{[6], [7]}.

L. N. Djurayev yoshlar iqtisodiy madaniyatining zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyasini tahlil qilib, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy mas'uliyatning yoshlar rivojlanishidagi ahamiyatini ko'rsatib bergan ^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy savodxonlikning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish ushbu tushunchaning nafaqat iqtisodiy, balki pedagogik, psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy jihatlariga ham ega ekanini ko'rsatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan iqtisodiy savodxonlik talabaning shaxs sifatida kamol topishi, mustaqil hayotga tayyorlanishi va ijtimoiy mas'uliyatni anglashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur bobda iqtisodiy savodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyati, talabalarda uni shakllantirish zarurati hamda xorijiy va milliy tajribalar asosida shakllangan yondashuvlar batafsil yoritiladi. Iqtisodiy savodxonlik zamonaviy jamiyatda insonning iqtisodiy



sodiy hayotga moslashuvi va iqtisodiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishi uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyalardan biridir. Ushbu tushuncha keng ma'noda shaxsning iqtisodiy bilimlari, ko'nikmalari, munosabatlari va xulq-atvorini o'z ichiga oladi. Ya'ni iqtisodiy savodxonlik insonning pul va iqtisodiy resurslar bilan bog'liq masalalarni tushunishi, ularni to'g'ri boshqarishi, iqtisodiy xavflarni baholashi hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish qobiliyatidir.

Iqtisodiy savodxonlik deganda faqat pulni tejash yoki xarajatlarni kamaytirish tushunilmaydi. Bu tushuncha ancha keng mazmunga ega. Iqtisodiy savodxon shaxs daromad manbalarini anglaydi, xarajatlarini rejalashtiradi, o'z ehtiyojlari va imkoniyatlari o'rtasida muvozanatni saqlaydi, qarz va kredit majburiyatlariga ongli yondashadi, jamg'arma shakllantirish zaruratini tushunadi, investitsiya, sug'urta, soliq, bank xizmatlari va raqamli iqtisodiy vositalardan foydalanishda ehtiyotkorlik ko'rsatadi. Demak, iqtisodiy savodxonlik shaxsning iqtisodiy hayotini tartibga soluvchi muhim bilim va amaliy xatti-harakatlar tizimidir.

Talabalar misolida iqtisodiy savodxonlikni talabani o'z mablag'larini rejalashtira olishi, shaxsiy byudjetini yuritishi, daromad va xarajatlarni tahlil qilishi, iqtisodiy qarorlar oqibatini oldindan baholashi, ortiqcha sarf-xarajatlardan saqlanishi, jamg'arma qilishga intilishi, kredit va qarz masalalarida ehtiyotkor bo'lishi, raqamli iqtisodiy xizmatlardan xavfsiz foydalanishi kabi ko'nikmalar majmui sifatida izohlash mumkin. Bu jihatlar talabani kundalik hayotida bevosita namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy savodxonlikning tarkibiy qismlari bir nechta asosiy yo'nalishlardan iborat.

Birinchi yo'nalish – iqtisodiy bilimlardir. Iqtisodiy bilimlar pul, daromad, xarajat, byudjet, jamg'arma, kredit, qarz, foiz, soliq, sug'urta, investitsiya, inflyatsiya, tadbirkorlik, iste'molchi huquqlari kabi tushunchalarni bilishni o'z ichiga oladi. Talaba bu tushunchalarni nazariy jihatdan anglamasa, ularni amaliy hayotda to'g'ri qo'llashi qiyin bo'ladi.

Ikkinchi yo'nalish – iqtisodiy ko'nikmalardir. Iqtisodiy ko'nikmalar talabani o'z mablag'ini amaliy jihatdan boshqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Masalan, bir oylik byudjet tuzish, xarajatlarni zarur va ikkilamchi xarajatlarga ajratish, narxlarni solishtirish, kredit shartlarini o'qish, jamg'arma rejasini tuzish, iqtisodiy hujjatlarni tahlil qilish, elektron to'lovlardan xavfsiz foydalanish kabi amaliy harakatlar iqtisodiy ko'nikmalarga kiradi.

Uchinchi yo'nalish – iqtisodiy munosabatdir. Iqtisodiy munosabat shaxsning pulga, mehnatga, jamg'armaga, qarzga, iste'molga va iqtisodiy mas'uliyatga bo'lgan ichki qarashlarini bildiradi. Masalan, ba'zi talabalar pulni faqat hozirgi ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida ko'rish mumkin. Iqtisodiy savodxonligi yuqori bo'lgan talaba esa pulni kelajakdagi maqsadlarga erishish, o'zini rivojlantirish, kasbiy o'sish va barqaror hayot qurish vositasi sifatida anglaydi.

To'rtinchi yo'nalish – iqtisodiy xulq-atvordir. Iqtisodiy xulq-atvor talabani real hayotdagi iqtisodiy qarorlarida ko'rinadi. Masalan, u mablag'ni reja asosida sarflaydimi yoki tasodifiy xarajat qiladimi, kredit olishdan oldin shartlarni tahlil qiladimi yoki yo'qmi, chegirmalar va reklamalarga tanqidiy qaraydimi, jamg'arma qilishga odatlanganmi, mobil banking va onlayn to'lovlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qiladimi – bularning barchasi iqtisodiy xulq-atvorni ifodalaydi.

Iqtisodiy savodxonlikning ijtimoiy ahamiyati juda katta. Iqtisodiy jihatdan savodxon inson o'z hayotini tartibli tashkil etadi, oilaviy byudjetni boshqaradi, iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanadi va jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etadi. Bunday shaxs o'zining iqtisodiy holatini anglaydi, kelajak uchun reja tuzadi va kutilmagan iqtisodiy qiyinchiliklarga nisbatan tayyor bo'ladi. Bu esa nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki jamiyatning iqtisodiy barqarorligiga ham xizmat qiladi. Iqtisodiy savodxonlikning pedagogik ahamiyati esa uning tarbiyaviy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish jarayonida talabalarda mas'uliyat, tejamkorlik, intizom, mehnatga hurmat, rejalashtirish, mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va kelajakni oldindan ko'ra bilish kabi muhim sifatlar rivojlanadi. Demak, iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish faqat iqtisodiy bilim berish emas, balki talabani shaxsiy kamolotiga ta'sir etuvchi tarbiyaviy jarayondir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikning shakllanishi ularning iqtisodiy tafakkurini rivojlantiradi. Iqtisodiy tafakkur shaxsning iqtisodiy hodisalarni tushunishi, ularni tahlil qilishi, sabab-oqibat aloqalarini anglash va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatidir. Talaba iqtisodiy savodxon bo'lsa, u o'z xarajatlarining ortishi, daromadning kamayishi, narxlarning o'zgarishi, kredit foizlari yoki jamg'arma imkoniyatlari kabi masalalarni tahlil qila oladi. Bu esa uning mustaqil hayotga tayyorgarligini kuchaytiradi. Iqtisodiy savodxonlik, shuningdek, iste'mol madaniyati bilan ham bevosita bog'liqdir.

Bugungi kunda reklama, ijtimoiy tarmoqlar, chegirmalar, onlayn do'konlar va turli marketing vositalari yoshlarning xarid qarorlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiy savodxon talaba ehtiyoj va xohish o'rtasidagi

farqni anglaydi, reklama ta'siriga ko'r-ko'rona berilmaydi, xarid qilishdan oldin narx, sifat, zarurat va imkoniyatlarni tahlil qiladi. Bu esa unda ongli iste'mol madaniyatini shakllantiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy savodxonlikning mazmuni yanada kengaymoqda. Hozirgi vaqtda talabalar bank kartalari, mobil ilovalar, elektron hamyonlar, onlayn to'lov tizimlari, internet xaridlari va masofaviy iqtisodiy xizmatlardan keng foydalanmoqdalar. Bunday jarayonlar ulardan raqamli iqtisodiy savodxonlikni ham talab qiladi. Raqamli iqtisodiy savodxonlik shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, parollar xavfsizligini ta'minlash, shubhali havolalar va xabarlarini aniqlash, firibgarlikdan saqlanish, elektron to'lovlarni ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy savodxonlikning shakllanishi talabani ijtimoiy faolligiga ham ta'sir qiladi. Iqtisodiy jihatdan bilimli talaba tadbirkorlik g'oyalarini ilgari surishga, o'z kasbiy imkoniyatlarini kengaytirishga, mustaqil daromad topishga, mehnat bozorida o'z o'rnini topishga ko'proq intiladi. U iqtisodiy imkoniyatlarni faqat sarflash vositasi sifatida emas, balki rivojlanish, o'z ustida ishlash va kelajakni ta'minlash imkoniyati sifatida qabul qiladi.

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish zarurati, birinchi navbatda, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlar tobora murakkablashib, iqtisodiy xizmatlar turlari kengayib, raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga kirib bormoqda. Har bir fuqaro kundalik hayotida turli iqtisodiy qarorlar qabul qilishga majbur bo'lmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning iqtisodiy savodxonligini oshirish ularning shaxsiy farovonligi, ijtimoiy faoligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun zarurdir. Talaba yoshlar jamiyatning eng faol, harakatchan va kelajakda mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan qatlami hisoblanadi. Ular oliy ta'lim jarayonida nafaqat kasbiy bilimlarni egallaydilar, balki mustaqil hayotga tayyorlanadilar. Mustaqil hayot esa har bir insondan o'z vaqtini, imkoniyatlarini, mehnatini va iqtisodiy resurslarini to'g'ri boshqarishni talab qiladi. Shu sababli talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish oliy ta'limning umumiy tarbiyaviy maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir.

Talabalik davrida yoshlar ko'pincha o'z mablag'larini mustaqil boshqarishni boshlaydilar. Ular stipendiya olishlari, ota-onasidan mablag' olishlari, qo'shimcha ishlashlari, turli grantlar, mukofotlar yoki boshqa daromad manbalariga ega bo'lishlari mumkin. Biroq bu mablag'lardan samarali foydalanish uchun ularda yetarli iqtisodiy bilim va ko'nikmalar shakllangan bo'lishi kerak. Aks holda, talaba mablag'larini rejasiz sarflashi, keraksiz xaridlar qilishi, oy oxirida iqtisodiy qiyinchilikka duch kelishi yoki qarz olishga majbur bo'lishi mumkin. Iqtisodiy savodxonlikning yetishmasligi talabalarning hayotida turli muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, talaba o'zining bir oylik daromadini rejalashtirmasa, zarur xarajatlar uchun mablag' yetmay qolishi mumkin. U ehtiyoj va xohishni farqlamasa, reklama yoki tengdoshlar ta'sirida ortiqcha xarajatlar qilishi mumkin. Kredit yoki muddatli to'lov shartlarini tushunmasa, kelajakda ortiqcha iqtisodiy yuklamaga duch kelishi mumkin. Raqamli iqtisodiy xavfsizlik qoidalarini bilmasa, firibgarlik qurboniga aylanishi mumkin. Bu kabi holatlar iqtisodiy savodxonlikning talaba hayotida qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi.

Iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik zarurati shundan iboratki, bu jarayon talabalarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantiradi. Iqtisodiy tafakkur talabani mavjud resurslardan oqilona foydalanishi, muqobil tanlovlarni baholashi, xarajat va foydani solishtirishi, kelajakdagi natijalarni oldindan ko'ra bilishi bilan bog'liqdir. Masalan, talaba ma'lum mablag'ni bir martalik xaridga sarflash yoki uni o'z ta'limi, kasbiy rivojlanishi, kurs, kitob yoki texnologik vosita sotib olishga yo'naltirish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Iqtisodiy savodxonlik unga ushbu tanlovni ongli ravishda amalga oshirishga yordam beradi.

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning yana bir muhim jihati ularning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishdir. Iqtisodiy madaniyat shaxsning pul va iqtisodiy munosabatlarga bo'lgan axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan to'g'ri munosabatini ifodalaydi. Bu madaniyat halol mehnat qilish, topilgan mablag'ni qadrlash, isrofgarchilikdan saqlanish, qarzga mas'uliyat bilan yondashish, oila va jamiyat oldidagi iqtisodiy majburiyatlarni anglash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy savodxonlik tarbiyaviy jarayon bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki iqtisodiy qarorlar insonning shaxsiy fazilatlarini bilan chambarchas aloqador. Masalan, tejamkorlik, sabr, intizom, mas'uliyat, halollik, mehnatsevarlik va maqsadga intilish kabi sifatlar iqtisodiy xulq-atvorda bevosita namoyon bo'ladi. Agar talaba o'z iqtisodiy maqsadiga erishish uchun xarajatlarini nazorat qilsa, reja tuzsa, keraksiz xaridlardan voz kechsa, bu uning shaxsiy intizomi va irodasini ham rivojlantiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish barcha ta'lim yo'nalishlari uchun zarurdir. Chunki iqtisodiy qarorlar faqat iqtisodchilar yoki moliyachilarga tegishli emas. Har bir mutaxassis o'z hayotida daromad, xarajat, soliq, sug'urta, kredit, jamg'arma va investitsiya masalalari bilan duch keladi. Pedagog, shifokor, muhandis, dasturchi, huquqshunos, jurnalist yoki san'at sohasi vakili bo'lishidan qat'i nazar, har bir inson iqtisodiy bilimlarga muhtojdir. Axborot texnologiyalari yo'nalishidagi talaba kelajakda dasturiy mahsulot yaratishi, startap loyihalarda ishtirok etishi yoki erkin kasb egasi sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunday holatda u investitsiya, loyiha xarajatlari, foyda, mijoz bilan shartnoma, narx belgilash va raqamli to'lovlar masalalarini tushunishi zarur bo'ladi. Demak, iqtisodiy savodxonlik zamonaviy kasbiy kompetensiyalarning ajralmas qismi hisoblanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish ta'lim jarayonida tizimli yondashuvni talab qiladi. Bir martalik suhbat, tadbir yoki ma'ruza orqali barqaror iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirish qiyin. Buning uchun ta'lim jarayonida iqtisodiy savodxonlikka oid mavzular bosqichma-bosqich, izchil va amaliy yo'naltirilgan holda berilishi kerak. Talaba avval iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtiradi, keyin ularni amaliy vaziyatlarda qo'llaydi, so'ng mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi. Bu jarayonda interfaol metodlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. An'anaviy ma'ruza iqtisodiy bilim berishi mumkin, lekin amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun keys-stadi, loyiha metodi, munozara, rolli o'yin, trening, muammoli vaziyatlar, guruhli ishlash va amaliy hisob-kitoblar kabi metodlardan foydalanish zarur. Masalan, talabaga "bir oylik shaxsiy byudjet tuzish", "ikki bank kredit taklifini solishtirish", "keraksiz xarajatlarni kamaytirish rejasi", "iqtisodiy firibgarlik holatini tahlil qilish" kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishda raqamli vositalar ham muhim o'rin tutadi. Elektron jadvallar, onlayn kalkulyatorlar, mobil ilovalar, test platformalari, taqdimotlar, infografikalar va videodarslar orqali iqtisodiy tushunchalarni o'rgatish samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiy xavfsizlik mavzusi bugungi kunda talabalarning kundalik hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli unga alohida e'tibor qaratish lozim. Shunday qilib, talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish pedagogik zarurat sifatida ularning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotga tayyorgarligi bilan belgilanadi. Bu jarayon talabalarda iqtisodiy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni, iqtisodiy tafakkurni, mas'uliyatli munosabatni va ongli iqtisodiy xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidqulova F. F. Talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023.
2. Obilov M. R. Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uslubiyotini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.
3. Salimov E. X. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak iqtisodchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Jizzax, 2025.
4. Raxmatullayeva D. R. Innovatsion yondashuv asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.
5. Butayev T. Muhandislik ta'lim sohalari talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2026.
6. Valiyev B. N. Iqtisodiy madaniyat va uni shakllantirish omillari: falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: O'zMU, 2004.
7. Jo'rayev L. N. Iqtisodiy madaniyatning strukturaviy-funksional tahlili: falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2005.
8. Djurayev L. N. Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatining transformatsiyalashuvi – innovatsion sotsiomadaniy fenomen sifatida: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.